



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha  
va maktab ta'limi vazirligi

\_\_\_\_\_ning  
maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi qarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasviri

\_\_\_\_\_ maktabgacha ta'limi tashkiloti  
o'rta guruh tashkilotchisi

\_\_\_\_\_ning  
takomillashish uchun "Ilk qadam"

o'qitish usuli asosida

*qisqartiruvchi yoz*

\_\_\_\_\_ usulida tashkillangan

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# FAOLLIYAT

# ISHLANMASI

(Avgust oyining 4-haftasi)



Mouse

**veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)**

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

**+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.**

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.*

*Hujjat word variant dos. formatda beriladi.*

*O'rta guruhlarga avgust oyi 4-hafta "Zavqli yoz" mavzusida markazlar bo'yicha tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.*




**Narxi: 5 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@maktabgacha\_tt**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.**

**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**

**To'liq holda olganingizdan so'ng:**

**Faqat o'zingiz uchun foydalaning.**

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**

**Internet veb-saytlarga joylamang.**

**Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT**

**OILMANG.**



## **Guruh: O'рта guruhlar uchun**

**Oy mavzusi: QUVNOQ VA SOG'LOM BOLALAR**

**Hafta mavzusi: Zavqli yoz**

**Faoliyatning maqsadi:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarni she'rning mazmunini tushunishga o'rgatish, yoz fasli haqidagi bilimlarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** bolalarni tabiatni sevishga, asrashga va uning qadrlashga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** kichkintoylarning yoz fasli va tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka o'rgatish.

**Faoliyat uslublari:** aqliy hujum, kichik guruhda ishlash, "Baliq ovi", "Boshqaruvchini top" o'yinlari.

**Faoliyat jihozi:** rangli qog'ozlar, mavzuga oid rasmlar, akvarium, markazlarda ishlash uchun zarur materiallar.

**Faoliyatning borishi:**

**Tashkiliy qism:** salomlashish (ingliz tilida ham).

**TARBIYACHI:** – Bolalar bilan salomlashib olamiz. Buni qo'llarimizdan boshlaymiz.

- Salom mening qo'llarim! (qarsak)
- Hello, my hands!
- Salom mening oyoqlarim! (tap-tap)
- Hello, my feet!
- Salom mening yuzlarim! (oh-oh)
- Hello, my faces!
- Salom mening tishlarim! (tars-tars)
- Hello, my teeth!
- Salom mening burunlarim! (bum-bum)
- Hello, my noses!
- Salom mening o'rtoqlarim!



– Hello, my friends!

(Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab tepaga ko‘taradilar).

TARBIYACHI: – Bolajonlar, hozir men sizga topishmoq aytaman, javobini toping-chi?

Quyosh rosa qizdirar,

Cho‘milish tanga yoqar.

Qani toping bolalar,

Bu qaysi fasl bo‘lar?

BOLALAR: – Yoz.

TARBIYACHI: – Barakalla, bolajonlar, to‘g‘ri aytdingiz. Aqliy hujum.

TARBIYACHI: – Yoz fasli qaysi fasldan keyin keladi?

1-Bola: – Bahor faslidan keyin yoz fasli boshlanadi.

TARBIYACHI: — Qani ayting-chi, yozda qanday ichimliklar ichamiz?

2-Bola: — Suv, meva sharbatlari, ayran.

TARBIYACHI: — Shirintoylari qayerda cho‘milasizlar?

3-BOLA: — Basseyn, ariqlarda.

TARBIYACHI: – Barakalla, hozir men sizlarga bolalar shoiri Shukur Sa‘dullaning “Yoz” she‘ri o‘qiyman.

Keldi ko‘klam kabi so‘ngin,

Bizlar sevgan issiq yoz.

Ekin o‘ydi yerlar.

Bug‘doy pishdi qirlar.

Qip-qizardi olchalar,

Uzar yosh bolachalar.

Poliz to‘la bodiring,

Bog‘bon tez uzib bering.

Sabr qiling siz andak,


So‘yib beray handalak.

Quyosh ko‘kda nur sochar,





Yangi dunyolar ochar.  
O'rik yetilib pishar,  
Yerlarga to'p-to'p tushar.  
Olma, anor, nok, bodom,  
To'ymaydi yeb hech odam.  
Yoz bo'yi bizda har xil,  
Meva pishar xilma-xil.



She'rdarda yoz faslining issiq ekanligi, dalalarda bug'doy, polizlar, bodring,  
bog'larda nok, olma, olcha, bodom kabi mevalar g'arq pishib yetilgan.

Lug'at ishi:

Ko'klam — yashil degani, ekin — o't-o'simliklar o'sadigan joydandek —  
ozgina deb tushuntiriladi.

“Baliq ovi” o'yini. O'yinning maqsadi bolalarni baliq ovlashni o'rganishini  
oshirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rnatilgan.

O'yin jihozlari: akvarium, magnitli qarmoq, baliq, baliq avat va turli  
predmetlarni aks ettiruvchi rasmlar.

Bolalar navbat bilan rasmdagi narsalarni nomini aytib, (ingliz tilida  
ham) u haqda ma'lumot beradilar.

“Boshqaruvchini top”  
tetiklashtiruvchi mashq



O‘yin qoidasi. Bolalar doira bo‘lib turadilar. Ulardan biri tashqariga chiqadi. Qolgan bolalar ichidan bitta boshqaruvchi tayinlanadi, boshqaruvchi bir necha harakatlarni bajartirib turadi. Shundan so‘ng tashqariga chiqqan bola chaqiriladi. U harakatlarni kuzatib, o‘yinni kim boshqarayotganligini topishi kerak. Agar topsa, boshqaruvchi tashqariga chiqadi, yangi boshqaruvchi tayinlanadi, topolmasa jarima belgilanadi. Jarima olgan bola biror o‘yin yoki she‘r aytib berishi kerak.

**TARBIYACHI:** – Bolalar, sizlardan o‘zingiz xohlagan markazlarga borib o‘tirishingizni so‘rayman. Pazandachilik markazida yoz faslida ko‘rib iste‘mol qiladigan ayron tayyorlanib, unga pomidor, bodriy qo‘shiladi. San‘at markazida yozgi mevalarni turli usullarda ranglamoq, “Rangin kaftchalar” texnologiyasi yordamida chizish, markazida cho‘milish havzasi maketini yasash taklif etiladi. Har bir bolaga o‘z



taqdimotini o‘tkazadi. Shundan so‘ng kichkintoylar bilimini mustahkamlash uchun savollar beriladi.

1. Yozda qaysi mevalar pishadi?
2. Poliz ekinlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Ko‘klam deganda nimani tushunasiz?



4. Andak so‘zining ma’nosini ayting?
5. Yozda bolalar qayerda cho‘miladilar?
6. Yozda qanday ichimliklar ichiladi?

Savollarga to‘g‘ri javob bergan bolalar rag‘batlantiriladi.

### ***Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi***

#### ***Mavzu: Yozgi oromgohlar***

Maqsad: bolalar o‘zlari dam olgan oromgohlar ko‘rinishini loyihalashtiradilar, qurish malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: legolar, kubiklar, namuna, mavzuga oid rasmlar, qurilish bloklari. Faoliyatning borishi:

Namuna va mavzuga oid rasmlarni kuzatish.

Kerakli qurilish bloklarini tanlash.

Ijodiy ish.

Bolalarning ishini muhokama qilish.

Tayyor ishni qo‘shimcha detallar bilan boyitish.

Qo‘shimcha: bolalar istagiga ko‘ra turli dam olish masalalari maketini yaratish.



### ***Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish***

#### ***Mavzu: Supermarket***

Maqsad: bolalar do‘konlar turlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid do‘kon rasmlari, turli xil do‘konlar uchun mahsulotlar, sotuvchi uchun kiyim, maxsus pullar, terminal va kartochkalar.

## **Faoliyatning borishi:**

O‘yin uchun sharoit yaratish

O‘yinni rejalashtirish

Rollarni taqsimlash

O‘yin

Yakuniy suhbat.

Qo‘shimcha: mavzu asosida suhbatlashish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: do‘kon turlari va u erdagi mahsulotlarning ajrata olish malakalari.

## ***Til va nutq***

Mavzu: Ertakchi bolalar

Maqsad: bolalar ertaklarni nomini biladilar va undagi vaqitini so‘zlab beradilar.

Kerakli jihozlar: ertaklar tasvirlangan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

Vazifani tushuntirish.

Rasmlarni kuzatish.

Rasmga qarab ertak nomini aniqlash.

Istaklariga ko‘ra ertaklarni hikoya qilish.

Suhbatni yakunlash, umumiy xatibha qilish.

Qo‘shimcha: ertak kitoblarni tomosh qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: hikoya malakasi, intonatsiya.

**Yakuniy qism: rag‘batlantirish.**

